

# МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 / 1 2021 жыл

## Илимий-методикалық журнал

Редактор:  
*A. Тилегенов*

Редколлегия ағзалары:  
Максет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Кенесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ  
Өсөрбай ЭЛЕУОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кенесбай Даулетяров  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Батырбек КАЙПБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Сарсен КАЗАХБАЕВ  
Гулмира КАРЛЫБАЕВА  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕИТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириүшилер:  
Қарақалпақстан Республикасы  
Халық билимлендіриү  
Министрлігі, ӨЗПИИ  
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинети  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қарары менен  
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм  
хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-саналы гүйалық  
берилген.  
Мәнзил: Нөкис қаласы,  
Ерназар Алакөз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: uznipnkf@mail.uz,  
mugallim-pednauk@mail.uz  
[www.mugallim-uziksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uziksiz-bilim.uz)

Журналга келген мақалаларға жеүап қайтарылмайды, журналда жетрояланған мақалалардан  
алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзлиksiz bilimlenediриү» журналынан алыны, деп корсетилиғи  
шарт. Журнала 5-бет колеміндеғи материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шириф-  
тіндеге электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәглүмәттердеге автор  
жекуапкер.

## **ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ**

<b>Atabekov F.O.</b> Talabalarni kasbiy – pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	98
<b>Абдуллаев А.А.</b> Талаба қизларни жисмонан тұғри ривожланишида халқ үйинларининг ахамияти .....	102
<b>Мардонов Ш.К., Мустафақулова Д.</b> О роли и значении биологического образования в Узбекистане .....	107
<b>Mutalova D.A.</b> The role of independent work for students in educational process .....	113

## **МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХӘМ РУҮХЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ**

<b>Мардонов Ш.К., Зокирова У.</b> Восточное миниатюрно-иллюстративное искусство .....	116
---	-----

## **ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА**

<b>Seytov A.J., Alimov B.N., Quzmanova G.B.</b> Matematikadan matnli masalalarini yechish jarayonining asosiy boscqichlari .....	120
<b>Musurmonova M., Ismoilova M.</b> Maktab ta'limida yasashga oid geometrik masalalarini yechishni amalga oshirish boscqichlari .....	124

## **ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ**

<b>Soatov E.M.</b> Sog'lom avlod tarbijalashda suzishning ahamiyati .....	128
<b>Хуррамов Э.Э.</b> Жисмоний тарбия ўқитувчиларини инновацион фаолиятта тайёрлашда хориж тажрибаларидан фойдаланиш .....	131
<b>Мардонов Ш.К., Исаков Дж.</b> Особенности общего и физического развития младших школьников .....	136
<b>Gimazutdinov R.G.</b> Место и роль физической культуры в общей системе воспитания детей дошкольного возраста .....	140

# ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА



## МАТЕМАТИКАДАН МАТНЛИ МАСАЛАЛАРНИ YЕЧИШ ЖАРАЙОННИНГ АСОСИY БОСQИЧЛАРИ

*Seytov A.J.*

*PhD, Toshkent viloyati CHDPI “Matematika” kafedrasi v.b. dotsenti*

*Alimov B.N., Quzmanova G.B.*

*Toshkent viloyati CHDPI “Boshlang’ich ta’lim” kafedrasi o’qituvchilarini*

**Tayanch so‘zlar:** matnli masala sharti, masala talabi, qiymat, kattalik, yechish bosqichlari.

**Ключевые слова:** условия текстовой задачи, требование задачи, значения, величина, этапы решения.

**Key words:** text task conditions, task requirement, values, magnitude, solving stages.

An’anaviy umumiyy o‘rtalim maktab matematika darslarida matnli masalalarini o‘qitish muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida o‘quvchilar o‘lchov birliklari, kattaliklar bilan ishlash tajribasiga ega bo‘ladi, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni tushunib yetadilar, matematikaga doir amaliy masalalarini yechish, tadbiq etish tajribasiga ham ega bo‘ladilar.

Har qanday matnli masala ikki qismdan iborat: shart va talab, ya’ni savoldan iborat. Masala shartida obyektlar va ushbu obyektlarni xarakterlovchi ba’zi kattaliklar, ushbu kattaliklarning ma’lum va noma’lum qiymatlari, ular o‘rtasida munosabatni haqida ma’lumatlar keltiriladi.

Masala talabi – berilgan kattaliklarning birortasining son qiymati yoki obyekt kattaliklari orasidagi topish haqida ko‘rsatma hukm yoki savol shaklida ifodalananishi mumkin.

Masalani yechish – masaladagi yaqqol yoki mavhum sonlar, kattaliklar, munosabatlar ustida amallar va operatsiyalarning mantiqan to‘g‘ri ketma – ketligi orqali masala talabini bajarish demakdir (masalaning savoliga javob berish).

Mashhur amerikalik matematik va pedagog Dyord Poya jadvalda keltirilgan masalani yechishni to‘rtta bosqichga ajratib ko‘rsatadi [1].

### Masala qo‘yilishini tushuntirish

Masalani tushunish kerak.	Nima ma’lum? Nima berilgan? Shart nimadan iborat? Shartni qanoatlantirish mumkinmi? Yoki yetarli emasmi? Yoki shart ortiqchami? Yoki ziddiyatlimi? Chizmasini chizing mos belgilarni kiriting? Shartni bo‘laklarga ajrating ularni yozishga harakat qiling.
---------------------------	---

<b>Yechishning rejasini tuzing</b>	
Berilganlar va noma'lumlar o'tasida aloqa o'rnating. Agar ushbu aloqani tezda aniqlab bo'limasa, yordamchi masaladan foydalinish foydali bo'ladi. Yakunida yechish rejasiga kelish lozim.	Siz ushbu masalani avval ham uchratganmisiz? Hech bo'lmasa boshqa shaklda? Sizga biror bir yaqin masala ma'lummi? Foydasi tegishi mumkin bo'lgan teoremani bilasizmi? Noma'lumga e'tibor bering? shu yoki shunga o'xshash noma'lumi tanish masalani eslashga harakat qiling. Ushbu masalaga o'xshash masala yechilgan bo'lsa, undan foydalinish mumkinmi? Uning yaxshi metodidan foydalinish mumkinmi? Uning natijasini qo'llash mumkinmi? Avvalgi masaladan foydalinish uchun yordamchi element kerakmi? Masalani boshqacha shakllantirish mumkinmi? Yana qanday shakllantirish mumkin? Ta'riflarga qayting? Ushbu masalani yecha olmasangiz, shunga o'xshashini yechishga harakat qiling. Yanada o'xshash masala o'ylash mumkinmi? Yanada umumiyoq yoki yanada xususiyroq? Masalaga analog bo'lgan? Masalaning bir qismini yechish mumkinmi? Sharhning bir qismini qoldiring va qolgan qismini olib tashlang: u holda noma'lum qanchalik aniq bo'ladi? U qanchalik o'zgarish mumkin? Noma'lumni aniqlash mumkin bo'lgan boshqa noma'lumlarni o'ylab topish mumkinmi? Noma'lumni yoki berilganlarni har ikkalasini ham yangi noma'lum yangi berilganlar bir-biriga yaqin bo'lishlari uchun o'zgartirish mumkinmi? Barcha berilganlardan siz foydalandingizmi? Masaladagi barcha mavjud tushunchalar e'tiborga olinganmi?
<b>Rejani amalga oshirish</b>	
Yechish rejasini amalgga oshirishda har bir qadamingizni nazorat qiling. Siz tomondan qo'yilgan qadam to'g'riligi ma'lummi? Uning to'g'riligini isbotlang.	
<b>Ortga nazar</b>	
Masalaning yechimini o'rganish lozim.	Natijani tekshirish mumkinmi? Yechim qadamlarini tekshirish mumkinmi? O'sha 'natijani boshqa yo'llar bilan ham olish mumkinmi? Uni bir nuqtai nazardan qarash mumkinmi? Biror bir boshqa masalada olingen natijadan yoki yechish metodidan foydalinish mumkinmi?

L.M. Fridman va E.N. Turtskiylar yuqorida sanab o'tilgan masalalarni yechish bosqichlari yoki ularni bo'laklarga ajratilishni aks ettiruvchi bir necha bosqichlarga ajratadi. [3].

L.M. Fridman avvalambor "Matnli masalaning muhim jihatni bo'lgan kattaliklar qiymatini ham ma'lum ham noma'lumlari, shu jumladan izlanuvchi, asosiysi munosabatlarning so'zli belgilarini aniqlashsga" yo'naltirilgan semantik tahvilni qo'llashni taklif etadi. Bu tahvil masalaning matmini "har bir masalaning ma'lum bir elementining so'zli modeli bo'lgan alohida so'zlarga yoki so'z birikmasiga ajratish yo'li bilan amalgga oshiriladi".

Matnni mazmunli qismalarga ajratish usuli masala mazmunini tushinishda juda samarali. Bunday ajratishni va bu asosda kattaliklarning berilgan qiymati va noma'lumni bog'lovchi munosabatlarni ajratish, bu munosabatlarning izlanayotgan komponentlarini aniqlashni o'rgatish masalani yechish ko'nikmasini shakllantirishga yordam berish mumkin.

Masalani yechishda birinchisi bosqichining asosiy maqsadi- masalanitushunish. Masalani tushunish masala nima haqida? Unda nimalar ma'lum? Nimalar noma'lum? Nimani topish kerak? Berilganlar (son, kattalik, kattalik qiymati) o'zarlo qanday bog'langan? Berilganlar va

noma'lumlar, berilganlar va izlanayotgan kattalik qanday bog'langan? Nima izlanayapdi: Son, munosabat, qandaydir tasdiq?

Keltirilgan savollar masalani tushunishda yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli o'quvchilarini o'zlariga shunday savollar berishga o'rgatish zarur hisoblanadi. Masalani birlamchi tahlil qilish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan savollarning qo'yilishi va ularga javob berish o'quvchilar o'zlarining masalani tushinish darajasini nazorat qilish vositasи bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Biz masalani dastlabki tahlil qilishning quyidagi usullarini ajratdik:

1. Masalani to'g'ri o'qish va eshitish.
2. Masalada tasvirlangan hayotiy vaziyatni tasavvur qilish va unda hayoliy ishtirok etish.

3. Masala mazmuniga ko'ra maxsus savolar qo'yish.

4. Masala matnini mazmunli qismrlarga ajratish.

5. Masala matnini qayta shakllantirish: Masalada berilgan vaziyat tavsifini barcha munosabatlar aloqalar va miqdoriy tavsiflarni ularni yanada yaqqolroq aks ettiruvchi vaziyatbayoni bilan almashtirish. Masalada tasvirlangan vaziyatni masalada so'z borayotgan hayotiy predmetlar yoki ularni almashtiruvchi predmetlar grafik tasvirlar (grafik modellar): rasmlar, chizmalar, sxemalar yordamida modellashtirish.

Sanab o'tilgan har bir usul masala mazmunini hissiy qabul qilishdan boshlanadi. Masalani o'qish va eshitish shunday amallar hisoblanadi. Ularni bajarish sifati masalani tushunish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada uni yechish harakatlari samaradorligiga ta'sir qiladi. Masalani o'qish va eshitishga ma'lum talablarni shakllantirish mumkin.

Masalani o'qishga birinchi talab – barcha so'zlar, so'zlar birikmalarini to'g'ri o'qish, tinish belgilarni e'tiborga olish. Bunda yo'q ishga o'rgatish – savolga va o'qishga o'rgatish darslari vazifasi. Ammo matematika darslarida ham bunga e'tibor qaratish lozim.

Masalani o'qishga ikkinchi talab – mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'yish. Mantiqiy urg'u o'qishda masalani tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bularga sonli ma'lumotlarni ajratish talabi, munosabat nomi tegishli. Masala savoliga mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'yish juda muhim rol o'yndaydi. Chunki undagi turli so'zлarni ajratish bu savolni keltirib chiqqargan vaziyatni turlicha tasvirlaydi va masalani tushunishga yordam beradi yoki uni tushunishga xalaqtir beradi. Buni misolda ko'rsatamiz.

Savol quyidagicha bo'lsin. Savatda nechta sariq gullar bor? Mantiqiy urg'uni turlicha qo'yan holda uchta turlicha usul bilan o'qilishi mumkin.

1. Savatda nechta sariq olmalar bor?

2. Savatda nechta sariq olmalar bor?

3. Savatda nechta sariq olmalar bor?

"Sariq" so'zining ajratilishi ushbu savol kelib chiqqan vaziyatda savoldagi turli rangdagi olmalar haqida so'z borayotganini bildiradi. Bunda sariq olmalar soni boshqa rangdagi olmalar soni bilan bog'liq. "Olmalar" so'zining ajratilishi savatdagи olmalar va savatdagи boshqa predmetlar haqida ham so'z borayotganligini anglatadi. Agar savolda "savat" so'zi ajratib ko'rsatilgan bo'lsa ma'lumki sariq olmalar savatdan boshqa idishda borligini anglatadi. Bunda savatdagи olmalar soni savatdan tashqaridagi olmalar soni bilan miqdoriy munosabatda.

Turli mualliflarni tahlil qilib butun masala yechish jarayononi sakkiz bosqichga bo‘lamiz. [2].

1-bosqich – masalani tahlil qilish.

2-bosqich – masala modelini qurish.

3-bosqich – masalani yechish usuluni qidirishva belgilab olish.

4-bosqich – masala yechishni amalga oshirish.

5-bosqich – yechimni tekshirish.

6-bosqich – masala va uning yechimini tadqiq etish.

7-bosqich – masala javobini shakllantirish.

8-bosqich – masala va uning yechimining o‘quv bilish tahlili.

Ko‘rsatilgan sakkiz bosqichdan to‘rttasi majburiy va ular har bir masalani yechish jarayonida mavjud. Bu bosqichlar masala tahlili, yechimni qidirish, yechimni amalga oshiruvchi javobni shakllantirish. Boshqa bosqichlar majburiy emas va murakkab va maxsus masalalarni yechishda mavjud. O‘quvchilar uchun yechish jarayoni ko‘p qiyinchiliklар tug‘diradi.

Bolalar masalaning yechimini topish uchun hal qilinayotgan masalada nimani topishni va nima noma‘lumligini, qanday arifmetik amallar va ularni qanday ketma-ketlikda bajarilishi kerakligini aniq tushuntirib berib, masalani tahlil qilishni o‘rganadilar; har bir amalni bajarilishini asoslash va olingan natijalarni tushuntirish; masala uchun qisqa shart tuzish va uning yechimini topish; og‘zaki ravishda savolga to‘liq javob beradi va muammo echimining to‘g‘riligini tekshiradi. O‘quvchilar ba’zi masalalarni yechishning turli xil usullarini bilishlari va ular orasidan eng qulay usulni ongli ravishda tanlay oladilar.

#### Adabiyotlar:

- Пойа Д. Как решать задачу: пособие для учителей / Д. Пойа; пер. В.Г. Звонарева, Д.Н. Белл; под ред. Ю.М. Гайдук. - 2-е изд. - М.: ГУПИ Мин. просв. РСФСР, 1961. - 208 с.
- Теория и технология обучения математике в средней школе: учеб. пособие для студ. мат. спец. пед. вузов / Т.А. Иванова, Е.Н. Перевоцникова, Л.И. Кузнецова и Т.П. Григорьева; под ред. Т.А. Иванова -2-е изд. -Н.Новгород: НГПУ, 2009.-355 с
- Фридман Л.М., Турецкий Е.Н. Как научиться решать задачи. – М.: Просвещение, 1984. -175с.
- Seytov A.J., Esonturdiyev M.N., Qarshiboyev O.S., &Quzmanova, G.B. (2020). Logarifmlarning ayrim hayotiy masalalardagi tatbiqi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 784-788.
- Alimov B., Po‘latov B.S., Fayzullayev A.N., & Qo‘ng‘irov, M.N. (2021). MATEMATIKADA UCHINCHI SHAXS YUMORI. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 160-165.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada matematikadan matnli masalalarni o‘qishga talablar va masalalarning tarkibiy komponentlarining ta’riflari keltirilgan. Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida matnli masalalarni yechish jarayonining bosqichlari tahlil qilingan.

#### РЕЗЮМЕ

Статья приведено требования к чтению текста задачи, определения составных компонентов текстовых задач по математике. Анализировано этапы процесса решения текстовых задач в средних школах.

#### SUMMARY

The article provides requirements for reading the text of the task, determining the components of textual tasks in mathematics. The stages of the process of solving text problems in secondary schools are analyzed.